

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5973083>

## MUSTAQIL O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMI RIVOJIGA HISSA QO'SHGAN BUXOROLIK AYOLLAR

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik yillarida xotin-qizlar ijtimoiy faolligining oshirilishi va yangi bosqichga ko'tarilgan ta'lim tizimi rivojiga hissa qo'shgan buxorolik xotin-qizlar haqida so'z yunitiladi

**Kalit so'zlar:** xotin-qizlar faolligi, ta'lim tizimi, o'qituvchi maqomi, maktab, tarbiya

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются женщины Бухары, внесшие свой вклад в развитие женской общественной активности и вывода системы образования на новый уровень в годы независимости.

**Ключевые слова:** женский активизм, система образования, статус учителя, школа, образование.

**Annotation:** This article discusses the women of Bukhara, who contributed to the development of women's social activity and bringing the education system to a new level in the years of independence.

**Key words:** women's activism, education system, teacher's status, school, education.

Vaqt o'zgarishi, yangilanishlar va eng avvalo, ozodlik, hurlik orqali yaxshilanishini davming o'zi sinovdan o'tkazmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yilidan boshlab mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy, madaniy – ma'rifiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash borasida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. 1995-yil davlat rahbari tomonidan "Bizning onalarimiz, opa-singillarimiz, ayol va qizlarimizning jamiyatdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mehnat va turmush tarzini yengillashtirish davlatimizning, jamiyatimizning asosiy va ustuvor vazifalaridan iborat bo'lib qolishi kerak" mazmundagi fikrlari istiqbol uchun dasturulamal bo'ldi.

Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy munosabatlarni mutanosiblashtirishning asosiy mexanizmi bu –demokratiya, O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan barcha aholining huquqlarini kafolatlariga qaratilgan. Mamlakatda inson huquqlari, jamiyatni demokratlashtirish muammolari ilmiy zehn, xalqning tarixan tarkib topgan an'analari, urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda hal etilmoqda. Jamiyat fuqarolik-huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, birinchi navbatda inson manfaatlari, jamiyat va shaxs ehtiyojlariga xizmat qilish bosh masala bo'lib qolishiga e'tibor qaratildi. Xususan, 1995-yil 2-mart PF-1084-sonli "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlar rolini oshirish choralari to'g'risida" Prezident Farmoni, 1999-yil 14-apreldagi 760-I-sonli "Xotin-



qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni , 2003 yil 29-avgust "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi" Qonunning 22-moddasi, shuningdek, 2010-yil 30-sentabrdagi PF-4245-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda 2004- yil 25-may PF-3434-sonli "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlarida xotin-qizlar huquqlarining ta'minlanishi, ularning jamiyat siyosiy va madaniy qatlamidagi ishtiroki, ayollar huquqlari kamsitilishiga qarshi ko'riladigan chora-tadbirlar mustaqilligimizning ilk yillaridanoq o'z samarasini ko'rsatdi. O'zgarishlarning eng yuksak ko'rinishini ta'lim tizimida ko'rmoqdamiz desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Ta'lim tizimidagi islohotlar, shuningdek, o'qituvchilik maqomi bugungi kunga kelib har qachongidan-da mustahkamlanib, mamlakatimiz birinchi rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Muhtaram yurtboshimizning "Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz" , degan fikrlari orqali ham tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda va jamiyatni yangilash jarayonida olib borilayotgan barcha sohadagi islohotlarda ayollarning o'rni beqiyos . Mohir pedagog, professor-o'qituvchi, shuningdek, ta'lim muassasalarida rahbarlik qilayotgan ayollarimiz xalqimizning farzandlariga erta-yu kech ta'lim-tarbiya berib ularni komil inson qilib tarbiyalashda ulkan hissa qo'shayotganligini jahon hamjamiyati ham e'tirof etgan holda ko'klarga ko'tarishmoqda. Bunga yaqqol misol qilib, Buxoroning olis cho'lida joylashgan Qorako'l maktabi va viloyatning boshqa tumanlarida faoliyat yuritayotgan ayol o'qituvchilarimizni keltirib o'tishimiz mumkin .

"Shavkatli tarixning jilvakor ko'zgusi" deb ulug'lanuvchi Buxoro qadim ming yillar davomida ilm maskani, mehr-muhabbat qo'rg'oni bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham o'z bag'rida qator yosh, serg'aryat, ilmi yoshlarni tarbiyalab, xalqimiz xizmatida bo'ladigan avlod qilib yetishtirib bermoqda. Bular qatorida 30 yil davomida o'qituvchilik qilgan, o'z kasbining sadoqatli mehnatkash egasi bo'lmish Shahodat Ixtiyorovani alohida tilga olishimiz lozim. Shahodat Ixtiyorova geografiya va o'lkashunoslik fanlaridan dars berib, "Mening o'lkam" to'garagiga rahbarlik qildi. Qator yillar davomida "Yil o'qituvchisi" tanlovida g'olib bo'lib, respublika ta'lim tizimi rivoji uchun katta hissa qo'shdi. Sh.Ixtiyorova tinmay yelib yugurishi, mehnatkashlarni ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoya etish bilan xalq hurmatiga sazovor bo'ldi. 1980-1995-yillar shahar kengashi, 1999-2004-yillar xalq deputatlari viloyat kengashi deputati bo'lib saylandi . Bundan tashqari Shahodat Ixtiyorova o'n yildan ortiqroq vaqt davomida Buxoro viloyat kasaba uyushmalari kengashi raisi o'rinbosari lavozimida ishlaydi. Shular bilan bir qatorda ta'lim tizimidan sira ajralmadi. Respublika geografiya fani o'qituvchilari uchun o'ziga xos



o'mak bo'lib, mustaqillikning dastlabki yillarida qator metodik tavsiyalar va to'plamlar chop ettirdi.

Yana bir Buxoro xalqi hurmatiga sazovor bo'lgan faylasuf olimi Gulchehra Navro'zova naqshbandshunos sifatida respublikamiz va chet ellarda tanilgan. O'zbekiston ilm-fani rivojiga o'z hissasini qo'shgan olimi Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya ta'limoti, barkamol inson tarbiyasi mavzularida 35 ta ilmiy maqolalari respublika va xalqaro jumallarda, 10 ta ilmiy maqolalari xalqaro anjumarlar to'plamlarida, 90 dan ortiq maqolalari respublika miqyosidagi anjuman to'plamlarida chop etilgan. Uzoq yillar davomida maktab hayotiga faol qatnashgani, mehnat faoliyati davomida maktab direktorining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimida bo'lganligi uchun ham ta'lim-tarbiya ishlarini yuritishda ancha faol ishtirok etdi. Taniqli olimi M.A.Axmedova rahbarligida 1990-yil nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Lekin u bu bilan tinchib qolmadi.

Jahonga keng yoyilgan tasavufning Naqshbandiya ta'limoti, uning asoschilari, xususan, Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy-ma'rifiy merosini tadqiq eta boshladi. 2002-yilda "Naqshbandiya tasavuf ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi, unga falsafa fanlari doktori unvoni berildi .

Dunyoda hech bir yaxshilik xayrli ishlar qilishga yetmaydi. Rohila Muhammadiyeva o'zining 4 nafar farzandiga qo'shib, 8 ta ota-onasiz farzandlarni bag'riga bosgan, mehribon o'zbek ayolidir. U 1994-yili Buxoro shahri, Sa'diy Sheroziy mahallasida "Oilaviy bolalar uyi"ni tashkil qilgan . 1996-yildan boshlab Buxoro xalq ta'limi bo'limi bolalar moddiy ta'minotini ta'minlashni o'z zimmasiga oldi va shundan so'ng oilaviy bolalar uyiga boshqa bolalar ham qo'shila boshladi.

"Umid" jamg'armasi orqali Indiana universitetining (AQSH) jurnalistika fakultetida tahsil olgan buxorolik Zilola Saidova, 2000-yilda jurnalistika va siyosatshunoslik mutaxassisliklarini yakunlab ona shahriga qaytdi. Buxorolik talaba qiz fotojurnalistika bilan mashg'ul bo'lib, uning ijodi Amerikaning "Indiana Alumni" va "Newsletter" jurnallarida bir necha bor chop etib chiqarildi. Fotosuratlaridagi jozibadorlik, nafislik va odamlardagi nozik jihatlarni aks ettira olgan Zilola Saidova nomi hozirgi kunda mashhur Indiana universiteti haqida hikoya qiluvchi maxsus bukletda ham uning 3 ta fotoetyutiga alohida joy ajratilib, ostiga "Zilola Saidova, O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan .

O'zbekiston ta'lim tizimi rivojiga ulkan hissa qo'shgan yana bir buxorolik pedagog olimi -Iroda Hasanovadir. Ta'lim jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish yo'lida ancha mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Mustaqillikning dastlabki 10 yilida tinimsiz izlanib, o'z ustida ishlagan pedagog katta natijalarga erishdi. "Yuk ko'targan yuzaga chiqadi" degan hikmat bor. 2003-yili tashabbuskor, fidoiy muallima "Shuhrat" nishoni bilan taqdirlangan .

Yuqorida sanab o'tilganlardan ko'rinib turibiki, mustaqillik yillarida oilaga, ta'lim va tarbiyaga e'tibor har qachongidan-da ortdi. Ushbu e'tibor respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilib borilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot

tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi" .

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini yetuk, professional kadrlarni tayyorlash, ularni xorij ta'lim tizimi bilan tanishtirish masalasi tashkil etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda mustaqillik yillarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'rnini masalasiga katta urg'u berilganligini guvohiga aylanamiz. Barcha sohalarda, xususan, ta'lim sohasida ham ayollarning o'rnini beqiyosligini Buxoro ayollari misolida ko'rishimiz mumkin. Buxoro xotin - qizlarining ta'lim rivojidagi faoliyatlari hukumatimiz tomonidan qadr topib kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1995-yil 2-martda qabul qilingan farmon.

2. Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi qonun <https://lex.uz/docs/-10550>.

3. Shavkat Mirziyoyevning tantanali marosimdagi nutqi (to'liq) (xabar.uz)

4. Djasanova S. Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi. T.: "Tafakkur qanoti" 2014.

5. Изланувчан муаллиманинг ютуқлари (uza.uz)

6. Каримова М. Аёл яратган дунё (Ўзбекистоннинг фидоий аёллари). –Т.: Шарқ,2005.

7. Исломова Д. "Ўнга бўлса ўрни бошқа"// Саодат, 2004 йил. -№4.

8. Ҳотамов Ф. "Зилола Саидова, Ўзбекистон..."// Саодат, 2002 йил. -№3.

9. "Улғайиш"// Саодат,2007 йил. №1.

10. Ta'lim tizimi va yangicha yondashuvlar (yuz.uz)